

SHAHRISABZ TARIXIY OBIDALARI VA ULARNING SAQLANISHI.

Xurramova Iroda Dadajon qizi

Shahrisabz pedagogika instituti Tarix kafedrası

Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Tarix) yo‘nalishi

I kurs magistranti.

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo vohasining muhim iqtisodiy va siyosiy hududlaridan biri hisoblangan Shahrisabzda mavjud bo‘lgan tarixiy obidalar, ularning bunyod etilishi tarixi hamda bugungi kunda saqlanishi xususida ba’zi mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Dorut Tilovat, Shamsuddin Kulol maqbarasi, Gumbazi Sayyidon, Ko‘k gumbaz masjidi, Oqsaroy, Chubin madrasasi. Amir Temur, Amir Tarag‘ay.

O‘zbekiston boshqa davlatlardan farqli o‘laroq, zamonaviy arxitektura namunalari bilangina emas, balki qadimiy qadamjolari bilan ham mashhurdir. Fikrimizning dalili sifatida buyuk bobokalonimiz Amir Temurning, “Bizning qudratimizga shubha qilsang, qurgan binolarimizga boq.”-degan gaplarini dalil sifatida keltirishimiz mumkin [1]. Yurtimiz tarixiy joylarga boy, ammo Sohibqiron Amir Temur tug‘ilib-o‘sgan Shahrisabz shahri alohida e‘tiborga molikdir. Ushbu shahar tarixiga nazar solsak, Shahrisabz – O‘zbekistonning qadimiy va go‘zal shaharlaridan biri bo‘lib, tarixiy markazi YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan, shuningdek bu jannatmakon o‘lka O‘zbekistondagi qadimiy shaharlardan biridir.

Dorut Tilovat (Qur‘on o‘qiladigan, tilovat qilinadigan joy) - Shahrisabz markazida Dor us siyodat majmuasi g‘arbida temuriylar xonadoniga mansub qadimiy inshootlar - Shamsuddin Kulol maqbarasi, Gumbazi Sayyidon va shu yerdagi eski madrasa o‘rnida barpo etilgan Ko‘k gumbaz masjididan iborat majmua joylashgan. [1]. Dorut Tilovat majmuasining hozirgi ko‘rinishi kvadratni eslatadi va uning umumiy maydoni 500 m² ni tashkil etadi. Mazkur hudud shahar yuzasidan salkam 2.25 metr balandlikda joy olgan[2].

Shamsuddin Kulol maqbarasi majmuaning eng qadimiy inshooti hisoblanadi. Maqbara qurilishi Amir Temurning farmoni bilan 1373-yilda boshlangan. Qurilish ishlari

1374-yilda nihoyalangan. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, bu yerda Shamsuddin Kulol qabristoni va Amirzoda Umarshayx Mirzoning qabri ham mavjud bo'lgan. Bu qabr Shamsuddin Kulol va Amir Tarog'oy maqbarasining qibla tomonida joylashgan. 1376-yilda Amir Temurning katta o'g'li Mirzo Jahongir ham shu yerga dafn etilgan. Amir Temur har safar Kesh shahriga tashrif buyurganida, piri Shamsuddin Kulol, otasi Amir Tarog'oy, o'g'li va boshqa qarindoshlari qabrini ziyorat qilgan[3]. Go'rxona to'rtburchak shaklda qurilgan bo'lib, umumiy maydon 12.1x10.6 metrni tashkil etadi. Inshoot to'raligicha pishiq g'ishtdan barpo etilgan. Kirish eshigi gullar bilan o'ymakorlik asnosida yaratilgan. Unda islamiy naqsh va kufiy yozuvlari joy olgan. Yog'och darvoza buxorolik ganjkor ustalar tomonidan tayyorlangan. Maqbaraning qirrador gumbazi mavjud bo'lgan. Ammo 20-asrda mazkur gumbaz qulab tushadi va keyinchalik uning o'rniga oddiy tekis tom o'rnatiladi[2]. Shamsiddin Kulolning ko'milgan hujrasi ham ko'fiycha yozuvlar bilan bezatilgan bo'lib bu asosiy bino hisoblanadi. Ikkinchi bino esa shakldor g'ishtlardan qad rostlagan. O'z davrida masjid darvozalari, ibodat qilish uchun maxsus joylar, tahorat olish uchun sakkiz qirrali hovuz, shu bilan birgalikda, balandligi 10.5 metrga teng bo'lgan minora barpo etilgan. Maqbara atrofida marmar zina-poyali kichik bog' va g'ishtin yo'laklar mavjud bo'lgan. Ilk mustaqillik yillarida kogonlik dindorlar va naqshbandiya tariqati yetakchilari tomonidan Shamsiddin kulol dafn etilgan joyga yaqin hududda birmuncha oddiy maqbara bunyod etilgan. Ammo, avliyoning ayni ko'milgan joyi aniqlanmay qolgan. 2008-yilda ayni hudud aniqlanib shu yerdagi 6 gektar maydonda ikki qavatli maqbara barpo etilgan[4]

Gumbazi Sayidon maqbarasi. Dorut Tilovat majmuasining janubiy qismida Gumbazi sayidon maqbarasi joylashgan. Maqbara devorlari pishiq g'ishtdan 1437—1438-yillar oralig'ida qurilgan. Maqbara qurilishi Mirzo Ulug'bek tomonidan amalga oshirilgan.

Ko'k gumbaz jom'e masjidi. Shamsuddin Kulol va Gumbazi Sayidon maqbaralarining qarama-qarshi tomonida Ko'k gumbaz nomli baland jom'e masjid joylashgan. Masjid Mirzo Ulug'bek tomonidan otasi Xuroson hukmdori Shohruh Mirzo sharafiga atab qurilgan. Masjid devorlariga suls va kufiy xatlarida turli yozuvlar yozilgan[4].

Oqsaroy (1380—1404) - Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida joylashgan me'moriy yodgorlik. Mazkur majmua 1380-yilda Amir Temur tomonidan qurilishi

boshlangan hamda 1386-yilda o'z nihoyasiga yetgan. Ammo bezaklash ishlari 1404-yilga qadar cho'zilgan. Saroy Amir Temurning onasi Takinaxotun xotirasiga bag'ishlab bunyod etilgan. Saroyni barpo etish davomida Xorazm, Eron va boshqa ko'plab mamlakatlardan keltirilgan hunarmandlar ishtirok etgan. Jumladan, gumbazli arkni yasash va bezashda tosh kesuvchi usta Muhammad Yusuf Tabriziyning ishtiroki bo'lgani gumbaz yozuvlarida saqlangan. Inshoot avvaliga 73 metrlik bo'lishi kerak edi. Uning tom qismida kichik suv hovuzi joylashtirilgan, undan quvurchalar orqali o'tgan suv sharshara hosil qilgan. Saroy poydevorini bunyod etishda oltin qum ishlatilgan. Bino poydevori ancha chuqur qilib qurilgan[2]. Oqsaroy shaharning shimoliy-sharqiy qismidagi bosh maydonda joylashgan bo'lib, o'z davrida muhtasham, xashamatli bo'lgan bu saroyning bizgacha yetib kelgan qismi yemirilib, haroba holiga kelib qolgan.

Saroyning faqatgina ulkan peshtog'i, ikki chekkasidagi minorasi, saroy poydevorining bir qismigina saqlanib qolingan. Oqsaroyning hozirgi ko'rinishi ham salobatli va go'zaldir. Bu salobatlilik va go'zallikka g'ishtlarning yaxlit bo'lib ko'rinishini ta'minlash - old va shimoliy devor yuzasini sirkor parchinlar bilan bir tekisda ishlash tufayli erishilgan. Peshtoq ravog'ining eni 22,5 m, balandligi 40 m, umumiy balandligi 50 m dan oshiqroqni tashkil etadi. Peshtoq minorasi ichidagi aylanma zina orqali yuqoriga chiqilgan. Saroy qabulxonasi arkining kirish qismida sher va quyosh, shu bilan birgalikda Temur davlatining ramzi bo'lmish uchta halqa shakli tasvirlangan. Ichki va tashqi devorlarda kufiy yozuvlar, ziynatli bezaklar, girih uslubidagi islomiy naqshlar mavjud.

Oqsaroyning avvalgi holati to'g'risida faqat yozma manbalarga qarab fikr yuritish mumkin. 20 yil davomida qurilgan bu bino to'g'risida Abdurazzoq Samarqandiy quyidagicha ma'lumot beradi: „Temur ishga yaroqli bo'lganlarning hammasini Xorazmdan Movarounnahrda ko'chirish uchun buyruq berdi... Xorazmlik ustalar baland va salobatli saroy qurishdi, hozir u Oqsaroy nomi bilan mashhur.“ Klavixosaroyini ko'zdan kechirganda (1404-yil, 29-avgust) u hamon qurib bitkazilmagan, ba'zi joylarining koshinli naqshlari tugallanmagan edi. Shunga qaramay, juda hayratlanganligini, uning nihoyatda go'zalligini yozadi. Saroy qurilishida xorazmlik ustalar qatori, mahalliy va boshqa davlatlardan kelgan ustalar ham qatnashgan. Peshtog'idagi yozuvlar orasida eronlik Muhammad Yusuf Tabriziy nomi 2-marta takrorlangan.

Yozma manbalarga ko‘ra, Oqsaroy turar joy va jamoat binosi sifatida qurilib, xonalar hovli atrofida joylashgan. Bobur ma’lumotlariga ko‘ra, hovli o‘rtasida hovuz, to‘rida gumbazli katta xona — devonxona, yonlarida maslahatchilar uchun kichik xona, hashamatli ravoqli bostirmalar, ichki tomonida haram va amirning xonasi joylashgan. Devonxona peshtog‘ida arslon va quyosh tasviri va Temur davlatining 3 halqa shaklidagi nishoni bo‘lgan. Gumbaz ichi va yonlariga, burchaklardagi minoralarga koshin-g‘ishtlardan qalqon shaklidagi girih naqshlar ishlangan. Bu naqshlar silliqlangan g‘isht va feruza rangli sirkor parchindan yozilgan kufiy xatlar zamini yo‘g‘on ko‘k belboqqa o‘xshash mujassamotni tashkil etgan. Oqsaroy devorlaridagi ranglar jilosi, tarixiy, falsafiy va diniy mavzudagi, kufiy, suls yozuvlari, koshinkori bezaklar, islamiy, girih naqshlarning o‘zaro uyg‘unligi binoga ajoyib va sehrli mazmun bag‘ishlagan. Ranglarning oy yorug‘ida jilolanib, oqarib ko‘rinishidan bino Oqsaroy deb nomlangan.

Saroyning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri — tom tepasiga ishlangan hovuzdir. Hovuzga suv Taxtaqoracha dovonidan qo‘rg‘oshin quvurlar orqali oqib kelib, undan sharshara hosil qilib pastga tushirilgan[3]. 1707-yilda Buxoro xoni Ubaydullaxon Oqsaroy peshtog‘i ostida toj kiyib, taxtga o‘tirganligi peshtoqning o‘sha paytda butun ekanligidan darak beradi.

1973— 1975-yillarda arxeologik tadqiqotlar, 1994—1996-yillarda konservatsiya ishlari olib borilgan[4]. Ashtarxoniylar hukmronlik davrida Oqsaroy Shahrisabzdagi kenagas beklari uchun ham qarorgoh vazifasini bajargan[5]. Arxeologik izlanishlar 1973—1975-yillar davomida Oqsaroy majmuasida arxeologik tadqiqotlar o‘tkazilgan. Arxeolog X.Sultonov rahbarligi ostida 1970-1980-yillarda bir qator qazishmalar olib borilgan. Natijada poldagi mozaik to‘shamaning bir qismi va hovlining ma’lum hududi aniqlangan. 1994—1996-yillarda esa Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan saroyda konvertatsiya ishlari amalga oshirilgan. Muhofazaga olinilishi 2002-yili Shahrisabz shahrining 2700 yillik bayrami vaqtida UNESCO hamkorligida saroy qisman qayta ta’mirlangan.

Chubin madrasasi. Chubin madrasasi — Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida joylashgan tarixiy yodgorlik. U shaharning shimolida joy olgan. Bugungi kunda bu hududda Shahrisabz tarix muzeyi faoliyat yuritadi. Joylashuvi Chubin madrasasi shaharning

shimoliy qismida, Oqsaroy qarshisida joylashgan[2]. Madrasa yog‘ochga ishlov beruvchi hunarmandlar mahallasida joylashgan. Tarixi Mazkur inshoot kim tomonidan barpo etilganligi aniqlanmagan. Xalq orasida ayrim taxminlar va rivoyatlar mavjud xolos. Bu madrasa „yog‘och bozori“ yaqinida joylashganligi sababli ham chub — „yog‘och“ so‘zi asnosida Chubin deya nomlanib ketilgan. Madrasa XVI asrda bunyod etilgan bo‘lib, o‘z davrida insonlarga diniy ta’limdan saboq beruvchi darsgoh vazifasini o‘tagan. Shu sababli ham, mazkur hududda xonaqoh, o‘quv xonalari vatalabalar yashashi uchun hujralar ham bunyod etilgan. Madrasa binolari keng hovli atrofini o‘rab turadi. Darsxona devorlari va masjidning ichkari qismi ganch bezaklar bilan bezatilgan, tom qismi katta gumbazlar bilan yopilgan. Hujralar esa oddiy toqilar bilan yopilgan. Ular XVII asrning oxirida, qadimiy poydevorlar ustiga qurib bitkazilgan. Ta’mirlash ishlari 1993—1996-yillarda madrasa hududida ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan va muzeyga moslab qayta rekonstruksiya qilingan. Bugungi kunda bu yerda Shahrisabz tarix muzeyi faoliyat yuritib kelmoqda[3]. Muhofazaga olinishi O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2019-yil 30-maydagi qaroriga ko‘ra, Shahrisabzda birinchi muzey-qo‘riqxona barpo etilgan. Uning qamroviga Shahrisabz shahrida joylashgan 7 ta tarixiy yodgorlik obyektlari kirilgan bo‘lib, Chubin madrasasi, Shahrisabz shahrining tarixiy qal’asi, Maliki Ashtar masjidi, Kunchiqar masjidi, Chorsu savdo gumbazi shular sirasiga kiradi[4].

Xulosa. Mustaqillik yillarida shahar qiyofasi tubdan o‘zgartirildi va qayta qurildi. Shahrisabz ahlining Temuriylar davri ulkan madaniy va ma’naviy merosi, noyob tarixiy yodgorliklarini asrab-avaylash, yosh avlodni buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari qilib tarbiyalash va ularni ozod mamlakatimiz buyuk istiqbolini yaratishga qodir kishilar qilib yetkazish ishiga qo‘shgan alohida xizmatlari e’tiborga olinib hamda Amir Temur tavalludining 660 yilligi munisabati bilan Shahrisabz , Amir Temur ordeni” bilan mukofotlandi. Bu xalqimiz uchun munosib taqdirlash boldi desak ham hech mubolag’a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mankovskaya L. Y., Qashqadaryo vohasining arxitektura yodgorliklari, Toshkent, 1979-yil.

2. „Oqsaroy“, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi: 6-jild (Miriyl — Parxish). Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2003 — 704-bet.
3. Poyon Ravshanov, Oqsaroy tarixi, Toshkent 2016-yil Manbalar
4. „Dorut Tilovat memorial majmuasi“ (<https://meros.uz/object/dorut-tilovat-memorial-majmuasi>) . meros.uz. Qaraldi: 08-2023.
5. Drevsyanskaya G.; Lunina S.; Usmanova Z.; Sultonov X.. Shahrizabz. Toshkent: Universitet nashriyoti, 1994 — 2-tom-bet.
6. Sharafiddin Ali Yazdiy; tarjimon: O.Bo'riyev. Zafarnoma (Movaraunnahr voqealari). Toshkent: Kamalak nashriyoti, 1994-yil — 185-186-bet.
7. F.Abduxoliqov; A.Razzoqov; K.Rahimov; A.Hakimov; B.Abdusalimov. O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar Qashqadaryo. Uzbekistan today, 2016-yil — 238-239-bet.